

Tunnelli muzlatgich uskunasi Freshline®EF Ixcham va foydalanish uchun qulay



**Freshline® Easy Freeze
Easy Freeze tunnelli
muzlatgich uskunasi
bilan oziq-ovqatingizni
muammosiz muzlatishni
boshlang.**

Freshline® EF tunnelli muzlatgich uskunasi yangi muzlatish liniyasini ishga tushirish uchun eng oddiy yechim sifatida ishlab chiqilgan:

- Ommabop - Ijaraga olish imkoniyatlari
- Qisqa yetkazib berish muddati
- Tez o'rnatish va ishga tushirish
- Foydalanish osonligi (intuitiv interfeys va oldindan yozilgan retseptlar), texnik xizmat ko'rsatish va tozalash
- Xavfsiz va gigiyenik uskunalarini individual ishlab chiqish
- Azotning yuqori samaradorligi
- Deyarli har qanday mahsulot uchun mos keladi
- Talab bo'yicha sozlanadi:
 - Freshline® Process Intelligence xizmati, bu bizning mutaxassislarimizga jarayonlaringizni yaxshilash va optimallashtirish uchun jihozlaringizni masofadan turib kuzatish imkonini beradi
 - Turli o'lchamlar mavjud va Air Products kompaniyasining barcha Freshline® yechimlari bilan standart to'plam tarkibiga kiradi
 - Juda tez va yuqori sifatlari kriogen muzlatish
 - Air Products oziq-ovqat azoti barcha qoidalar va eng yaxshi amaliyotlarga mos keladi
 - Doimiy qo'llab quvvatlash va Air Products tajribasi
 - Tunnellarning xavfsizligi va ekspluatatsiyasi bo'yicha o'qitish
 - Audit va yordam

Muzlatish/sovutish bo'yicha tajribangiz yo'qmi? Freshline® EF yechimi sizga yordam beradi:

- Minimal boshlang'ich sarmoya bilan yuqori sifatlari mahsulotlar ishlab chiqaradigan uzlusiz muzlatish/sovutish liniyasini ishga tushirish oson va tez.
- Yangi mahsulotlarni tatib ko'ring va sinab ko'ring: Bir mahsulotdan ikkinchisiga o'tish juda oson.
- Buyurtma bo'yicha muzlatish: Tez muzlatish (soat emas, balki daqiqalar davomida) ko'p miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga hojat yo'qligini anglatadi.
- Mahsulotlarning keng assortimenti uchun moslashuvchan dasturlash.

Siz allaqachon muzlatgich/sovutgichdan foydalanasizmi? Freshline® EF yechimi sizga yordam beradi:

- Yangi uskunaga sarmoya kiritmasdan muzlatish imkoniyatlarini kengaytirish (ijaraga olish opsiyasi)
- Mahsuldarlikni oshirish - mahsulotni qayta ishlash uchun ko'proq vaqt va uni texnologik jarayondan sovutish zonasiga o'tkazish uchun kamroq vaqt, bu mahsulotni qayta ishlash xarajatlarini kamaytiradi
- Texnologik jarayondagi qiyinchiliklarni bartaraf etish - buyurtma bo'yicha muzlatish
- Mijozlarning ehtiyojlariiga tez va samarali javob berish
- Mahsulotlaringiz narxini oshirish orqali bozorni kengaytirish: tez muzlatish mahsulot sifatini yaxshilaydi
- Yangi mahsulotlarni tatib ko'rish va sinab ko'rish

Nima uchun kriogen muzlatish boshqa texnologiyalardan afzalroq?

Kriogen muzlatish texnologiyalari juda yuqori muzlatish tezligiga erishish uchun suyuq azotning juda past haroratidan (-196 °C) foydalanadi, bu esa muzlash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va muz kristalining hajmini kamaytiradi.

Tezroq muzlash va muzlatilgan oziq-ovqat tarkibidagi muz kristallari hajmini kamaytirish quyidagilarni bildiradi

- Suvsizlanish natijasida og'irlik yo'qotish kamayadi
- Mahsulot sifati va tuzilishi yaxshilanadi
- Mahsulotning tashqi ko'rinishi va rangi saqlanadi. Bozordagi boshqa muzlatish yechimlari, masalan, intensiv havo harakatiga asoslangan muzlatgichlar bilan solishtirganda qo'shimcha afzalliklar.
- Ishlab chiqarish moslashuvchanligini oshirish uchun tezkor ishga tushirish
- Kamroq moliyaviy sarmoyalari
- Minimal o'rnatish narxi
- Uskunalar egallaydigan maydonning qisqarishi
- Kam xarajatlar
- Tozalash vaqtqi qisqarishi
- Muzlatish uchun ekologik toza yechim
- Moslashuvchan mahsuldarlik - harorat va tasma tezligini o'zgartiring.

Air Products kompaniyasining o'z mutaxassislar jamoasi oziq-ovqat sanoatida gaz texnologiyasi bo'yicha keng bilimga ega. Jarayoningizni tekshirish orqali ular har bir ishlab chiqarish muammosi uchun optimal yechimni ishlab chiqish uchun siz bilan birga ishlaydi.

Umumiy texnik shartlar

Freshline® EF muzlatgich apparati - foydalanish uchun qulay kriogen muzlatish tunnelli. Bu minimal boshlang'ich sarmoya bilan sovitish yoki muzlatish imkoniyatini 500 kg/soatgacha (mahsulotga qarab) oshirishni xohlaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash korxonalar uchun ideal yechimdir. Agar sizga ko'proq mashsuldarlik kerak bo'lsa, bizning Freshline® MP ko'p maqsadli muzlatgich apparatimiz haqida so'rang.

Freshline® EF muzlatgich apparati bitta tasma kengligida (1000 mm), turli xil tarzda to'qilgan tasma varianti va ikkita tasma uzunligida (4 yoki 6 metr) mavjud. Jadvalda turli xil Freshline® EF tunnelli muzlatgich apparatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Elektr1 va pnevmatik2 talablarni eslatmalar bo'limida topish mumkin.

Model ⁶	Umumiy uzunli k (m)	Muzlatish uzunligi (m)	Lenta kengligii (m)	Umumiy kenglik ³ (m)	Umumiy balandlik ⁴ (m)	Umumiy og'irlik (kg, taxminan)	Elektr energiyasiga bo'lgan talab (kVt)j	Tipik muzlatish mahsuldarligi ⁵ (kg/soat)
Freshline® EF 1000.4	5,9	4	1,0	1,8	2,5	1700	6	300
Freshline® EF 1000.6	7,8	6	1,0	1,8	2,5	2500	8	500

1 Elektr talablari: 400 V, 3 faza va yerga ulanish, 50 Hz.

2 Pnevmatik talablari: 5-7 bar manometrik bosimida 1 Nm3/soat.

3 Umumiy kenglik boshqaruv paneli va gaz tortish tizimini o'z ichiga olmaydi.

4 Ko'rsatilgan balandlik tunnel ochiq holatda hisoblangan.

Oyoqlarning balandligi sozlanishi tufayli balandliklarni o'zgartirish mumkin.

5 Muzlatish samaradorligi mahsulot va foydalanish sharoitlariga bog'liq. O'tkazish imkoniyati yanada yuqori bo'lish mumkin.

6 Air Products kompaniyasi siyosati doimiy ravishda takomillashtiriladi va shuning uchun ba'zi ma'lumotlar o'zgarishi mumkin. Shuning uchun berilgan barcha ma'lumotlar alohida mashinalar uchun tasdiqlanishi kerak.

Air Products kompaniyasiga savol bering.. va yanada ko'prog'ini kuting

O'zingizga qanday vazifalar qo'yaningizdan qat'i nazar: MGM da sovitish, sabzavot va mevalar, parranda go'shti, go'sht yoki boshqa mahsulotlarni sovitish yoki muzlatishingizdan qat'i nazar, Air Products kompaniyasining Freshline yechimlari sizga yuqori darajadagi toza gazlar va uskunalarini, xalqaro yetkazib berish imkoniyatlarini va eng muhimi, dunyoning istalgan nuqtasida muvaffaqiyatga erishishingizga yordam beradigan tengsiz tajriba va texnik yordamni taklif etadi.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun biz bilan bog'laning:

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

"Air Products Central Asia Group" MCHJ

Xalqaro Biznes Markazi (IBC)

A blok, 3-qavat

T: +998712051655

uz@airproducts.com

airproducts.uz



GENERATING A CLEANER FUTURE